Sanoqdan oldin 1C bazasini tozalash: 20 ta tekshiruv

Sanoq varaqlarini chop etishdan 5–7 kun oldin boshlang. Tekshiruvlar shu tartibda: avval himoya, keyin hujjatlar, so'ng kartochkalar va qoldiq. Har bir topilmani dublikatlar jurnaliga yozing.

Baza / tashkilot: _____ Kesish sanasi: _____ 1C mas'uli: _____

1 Himoya va cheklovlar

	Mas'ul	Sana
☐ Bazaning to'liq zaxira nusxasi olindi va sanasi bilan saqlandi		
☐ Yopilgan davrlar uchun o'zgartirishni taqiqlash sanasi o'rnatildi		
☐ Tekshiruv davomida yangi kartochka ochish huquqi bitta mas'ulga qoldirildi		

2 Hujjatlar

	Mas'ul	Sana
☐ O'tkazilmagan kirim, chiqim, ko'chirish va qaytarish hujjatlariga qaror qabul qilindi		
☐ Kesish sanasidan keyingi sana bilan kiritilgan hujjatlar muallifi bilan tekshirildi		
☐ O'chirishga belgilangan hujjatlar ko'rib chiqildi, keraklisi qayta o'tkazildi		
☐ Omborlararo ko'chirishlarda «yo'lda» qolgan hujjatlar yopildi yoki ro'yxatga olindi		
☐ Komissiya va javobgar saqlashdagi tovar alohida omborda yoki belgi bilan ajratildi		

3 Nomenklatura

	Mas'ul	Sana
☐ Kod (artikul) takrorlari COUNTIF bilan topildi		
☐ Takror va bo'sh shtrix-kodlar ro'yxati olindi		
☐ Nomi bir belgiga farq qiladigan kartochkalar (apostrof, kirill-lotin, bo'shliq) tekshirildi		
☐ Topilgan dublikatlar jurnalga yozildi, birlashtirish nusxada sinab ko'rildi		
☐ Har bir kartochkaning asosiy birligi javondagi birlikka mos keladi		
☐ Qadoq koeffitsiyentlari (1 quti = N dona) to'ldirildi va tekshirildi		

4 Qoldiq va narx

	Mas'ul	Sana
☐ Manfiy qoldiqlar ro'yxati olindi, har birining sababi yozildi		
☐ Nol narxli yoki narxsiz kirimlar topildi va tuzatildi		
☐ Arxivdagi va o'chirishga belgilangan kartochkalardagi qoldiq hal qilindi		
☐ Kirim narxi boshqa hujjatlardan keskin farq qiladigan qatorlar birlik xatosiga tekshirildi		

5 Varaqlarga chiqarish

	Mas'ul	Sana
☐ Qoldiq hisoboti kesish sanasi va soatiga olindi, fayl sana bilan saqlandi		
☐ Sanoq varaqlari ombor, zona va moddiy javobgar shaxs bo'yicha, qoldiq ustunisiz chop etildi		

> Bazadagi tuzatishlar faqat zaxira nusxa olingandan keyin va 1C mas'uli bilan kelishib kiritiladi. Menyu va hisobot nomlari konfiguratsiyaga qarab farq qiladi.

Tekshirdi (1C mas'uli) _____

Qabul qildi (bosh buxgalter) _____

Savollar va buyurtma +998 91 644 07 02 · t.me/SarvarBerdiev13 · skladsoft.uz